

QISHLOQ XO'JALIK LANDSHAFTLARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (KASBI TUMANI MISOLIDA)

Xushmurodov Farrux Mirzomurodovich. G.f.f.d (PhD). dotsent.

Shoniyozova Gulshoda Shuhrat qizi. Magistrant.

Qarshi davlat universiteti. O'zbekiston.

Аннотация: Kasbi tumani tabiiy geografik xususiyatlari, iqlimi, relyefi, ichk suvlari, tuproq va o'simlik qoplamining agrolandshaftlarni shakllanishidagi o'rni hamda qishloq xo'jalik maqsadlarida, tuman hududi landshaftlarining tabiiy salohiyatini baholash va antropogen ta'sir natijasida o'zgarishini o'rganish muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligi bayon etilgan. Kasbi tumani sug'oriladigan yerlaridan foydalanishni, yer fondi turlari qishloq xo'jalikda foydalanilishi yoritilgan. Maqolada tuman qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida hududlarda shakllanadigan agrolanshaftlarda tabiiy resurslardan foydalanish samarasini oshirish, klasterlarni tashkil etish va boshqa shu kabi tadbirlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: agrolandshaft, antropogen landshaft, qishloq xo'jaligi, agroiklim resursi, klaster, yer fondi, vegetatsiya, mezo va mikro relyef, mintaq, intensiv.

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЛАНДШАФТОВ

(НА ПРИМЕРЕ КАСБИНСКОГО РАЙОНА)

Хушмуродов Фаррух Мирзамуродович. (PhD), доцент.

Шониязова Гулшода Шухрат кизи. Магистрант.

Каршинский государственный университет. Узбекистан.

Аннотация: В статье изложены природно-географические особенности Касбинского района, включая климат, рельеф, внутренние воды, почвы и растительный покров, а также их роль в формировании агrolандшафтов и использовании в сельскохозяйственных целях. Обоснована важная практическая значимость оценки природного потенциала ландшафтов территории района и изучения их изменений под воздействием антропогенных факторов.

Рассмотрены вопросы использования орошаемых земель Касбинского района, а также структура земельного фонда и особенности его использования в сельском хозяйстве. В статье также представлены мероприятия, направленные на повышение эффективности использования природных ресурсов в формирующихся агrolандшафтах, развитие сельского хозяйства района, организацию аграрных кластеров и реализацию других сопутствующих мер.

Ключевые слова: агrolандшафт, антропогенный ландшафт, сельское хозяйство, агроклиматические ресурсы, кластер, земельный фонд, растительность, мезо- и микрорельеф, пояс, интенсивный.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF AGRICULTURAL LANDSCAPE UTILIZATION (CASE STUDY OF KASBI DISTRICT)

Khusmurodov Farrukh Mirzomurodovich. PhD, Associate Professor.

Shoniyezova Gulshoda Shuhrat kizi. Master's student.

Karshi State University. Uzbekistan.

Abstract: The article describes the natural and geographical characteristics of Kasbi District, including climate, relief, inland waters, soil, and vegetation cover, as well as their role in the formation of agricultural landscapes and their use for agricultural purposes. The study

emphasizes the significant practical importance of assessing the natural potential of the district's landscapes and examining changes resulting from anthropogenic impacts.

Issues related to the use of irrigated lands in Kasbi District, the structure of land fund categories, and their application in agriculture are analyzed. In addition, the article outlines measures aimed at increasing the efficiency of natural resource use in the emerging agricultural landscapes, developing the district's agricultural sector, establishing agro-clusters, and implementing other related initiatives.

Key words: *agrolandscape, anthropogenic landscape, agriculture, agroclimatic resource, cluster, land fund, vegetation, meso and micro relief, region, intensive.*

Kirish. Kiyingi yillarda antropogen landshaft komplekslarini o'rganishga va xaritalashtrishga bag'ishlangan juda ko'plab ilmiy asarlar vujudga keldi. Jumladan, keyingi yillarda geografiya bo'yicha olib borilayotgan ilmiy - tadqiqot ishlarida nisbatan kichik hududiy birliklar mukammal o'rganilmoqda, shu nuqtai-nazardan tuman va jamoa xo'jaliklarini geografik nuqtai-nazardan o'rganish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish, sug'oriladigan dehqonchilik hududlarida landshaftlarning o'zgarishi kabi masalalarini o'rganish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Shu jihatdan arid mintaqada joylashgan Kasbi tumani tabiiy landshaftlaridan foydalanish jarayonida inson faoliyatining ta'siri tobora kuchayib bormoqda va bunday ta'sir tufayli tabiiy landshaftlarning o'zgarishi va antropogen landshaftlarning vujudga kelishi sodir bo'layotganligi tuman hududiy birliklarni o'rganishni taqozo etadi.

Mamlakatimiz O'zbekistonning ma'muriy tarkibini tashkil etgan viloyatlar turli tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlari va darajalariga ega bo'lganidek, har bir viloyat ma'muriy tarkibiga kiruvchi tumanlarning ham tabiiy geokologik sharoiti, agroiqlimiy resurslari va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlar, bu imkoniyatlardan foydalanish xususiyatlariga ko'ra rivojlanish darajalari ham turlichadir. Qashqadaryo viloyati tumanlarining ko'pchiligi tekislik mintaqasi va tog' oldi, tog'lik mintaq tumanlariga bo'linadi. Ushbu tafovut Qashqadaryo viloyatning iqtisodiy ixtisoslashuvi, xo'jalik tizimining hududiy tashkil topishi va ijtimoiy rivojlanishida o'z aksini topgan. Qashqadaryo viloyatining tumanlarining nafaqat tarixi, balki ularning xo'jalik tizimining shakllanishi ham tabiiy geokologik sharoitlariga ko'ra ajratiladi. Kasbi tumani 1970 yil tashkil etilgan. Tumanning maydoni 0,65 ming kv.km. Aholisi 195,8

ming kishi (2019). Qashqadaryo viloyatida tarixiy, hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan alohida o'rin egallagan Kasbi tumani viloyatning Qarshi cho'lining markaziy qismida joylashgan bo'lib, u shimoldan Muborak, shimoliy-sharqdan Koson, sharqdan Qarshi, janubdan Nishon, janubiy – g'arbdan Mirishkor tumanlari bilan chegaralanadi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Mavzuni o'rganishda muhim ilmiy yondoshuv va tamoyillardan, tizimli kompleks yondashuv tadqiqotning asosini tashkil etib, aerokosmik, kartografik, paleogeografik, geografik-taqqoslash, statistik, geoinformatsion modellash (GIS modellash) va boshqa usullardan foydalanish asosiy natijaga erishish imkonini beradi. Kasbi tumani landshaftlari xususiyatlariga ko'ra o'ziga xos bo'lib, cho'llarni rayonlashtirish tarhiga ko'ra A.G.Babayev (1977) Qizilqum rayoniga, L.N.Babushkin va N.A.Kogay (1964), M. Qoriyev (1962) tabiiy geografik jihatdan Qashqadaryo tabiiy geografik okrugiga kiritadi. Kasbi tumani hududida O.Y.Poslavskaya (1966)ning tadqiqotlariga ko'ra eol-akumlyativ relyef keng tarqalganligi bayon etilgan. Bundan tashqari Qashqadaryo havzasi landshaftlarini o'rganish doirasida Kasbi tumani landshaftlari ham tahlil qilingan. S.A.Nishonov (1967), Poslavskaya, M.F.Rasulov (1968), I.A.Hasanov (1976), I.X. Jonqobilov (1999-2015), S.I.Abdullayev va R.Usmonova (1997-2002), antropogen landshaftlarini S.I.Abdullayev, M.Nazarov (2020) va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan.

Asosiy qism. Insonning xo'jalik faoliyati natijasida landshaftlarining qiyofasi keskin o'zgarib bormoqda. Tabiat resurslaridan xo'jalik maqsadlarida foydalanish natijasida tabiiy landshaftlarni o'rnini qayta shakllangan antropogen landshaftlar egallab, ko'lam kengayishi kuzatilmoqda. Antropogen landshaft deb, Yer landshaft sferasining tubdan o'zgartrilgan va inson faoliyati tufayli shakllangan hamda kelib chiqish nuqtayi nazardan tabiiy geotizimlar kabi mustaqil genetik qatorga ega bo'lgan geografik kompleksga aytiladi. F.N.Milkov (1973), inson tamonidan yaratilgan va inson ta'sirida tabiiy komplekslarning komponentlaridagi sodir bo'lgan tubdan o'zgarishlarini, hatto o'simlik va hayvonot dunyosini

o'zgargan landshaftlari antropogen landshaft deb ta'riflaydi. Antropogen landshaftlarning tabiiy sharoiti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada, ular qaysi geografik zona yoki hududida joylashgan bo'lsa, shu zonaning tabiiy sharoiti bilan bog'liq holda rivojlanadi va tabiiy qonuniyatlar asosida taraqqiy etadi. Ular o'zining xo'jalikda foydalanishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: madaniy va madaniy bolmagan landshaftlar [87].

Antropogen landshaftlar hamma geografik zonalarda, tog'li o'lkalarda ham uchraydi va ular turli xil zonal geografik sharoitlarda vujudga keladi. Arid zonalar sharoitida, jumladan O'rta Osiyoda, O'zbekistonning janubida hududining katta qismi cho'l zonasida joylashgan Qashqadaryoda voha landshaftlari vujudga keldi.

Kasbi tumani hududida antropogen landshaft vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan relyefning mezo va mikro shakllarining keng tarqalgan xili xarakterlidir. Relyefning bunday shakllariga kanallar, sug'orish tarmoqlari, zovurlar eroziya bazasining o'zgarishi natijasida vujudga kelgan jarlar va boshqalar misol bo'ladi. Tekislik relyefida inson tomonidan qadimdan barpo etilgan tepaliklarning tez-tez uchrashi ham relyefning muhim belgilaridandir. Kasbi tumanining markaziy qismi allyuvial jinslar bilan qoplangan. Shimolga tomon yer yuzasi balandliklardan iborat. Bu balandliklar yuzasi nurash, eroziya jarayonlar natijasida yassilangan bo'lib, ularda quruq o'zanlar ko'plab uchraydi. Bu jarayonlarning Maymanq tog' qirlarida ko'rishimiz mumkin. Kasbi tumani hududi geologik tuzilishi jihatidan paleozoy va mezozoy cho'kindi hamda otqindi yotqiziqlari bilan qoplangan, gersin va antropogen jarayon ta'sirida burmalangan. Kasbi tumani hududida eol-akkumulyativ relyef keng tarqalgan. O.Y.Poslavskayaning tadqiqotlariga ko'ra eroziya-akkumulyativ relyeflari vujudga kelishiga ko'ra eroziya-akkumulyativ relyef tiplari bilan chambarchas bog'liq. Bu yerda eol relyef tipida marzali va tepali qumlarning kichik relyef tiplarini ajratish mumkin. Bunday relyef tiplari Qashqadaryoning quyi oqimi sohillarida va tumanning chekka g'arbiy qismlarida tarqalgan.

Kasbi tumanining iqlimi keskin kontinental iqlim bo'lib, yozi issiq-quruq va uzoq davom etadi. Qishi esa uncha sovuq emas. Tumanning qishi iliq (yanvarning o'rtacha harorati $0^{\circ} + 2^{\circ} \text{C}$) bo'lib, vegetatsiy deyarli yil bo'yi davom etadi. Ba'zan shimoli-g'arbdan Arktika havo massalari kirib kelganda harorat absolyut minimal temperatura $-22^{\circ}-29^{\circ} \text{C}$ ga tushib ketadi. Yoz esa issiq (iyulning o'rtacha harorati $+35^{\circ} + 37^{\circ} \text{C}$) uzoq bo'lib, maksimal harorati $43^{\circ} - 47^{\circ} \text{C}$ gacha ko'tariladi. O'simliklarning vegetatsiya davri 7 oy davom etishi ekinlardan yiliga 2-3 martadan hosil olish imkon beradi. Vegetatsiya davridagi haroratlar yig'indisi 4900^0-5300^0 bo'ladi. Shu sababli tuman xo'jaliklarida eng issiqsevar o'simliklardan uzun tolali paxta, makkajo'xori, anor, bodom, uzum va boshqa ko'plab sabzavot hamda poliz ekinlarini yetshitirish imkonini beradi. Yozda jazirama issiq bo'lishi, havoda namlik miqdorining kamligi va yog'ingarchilikning deyarli bo'lmasligi tufayli bug'lanish miqdori tuman hududida yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Kasbi tumani uchun ham gidrografik to'ring shakllanmaganligi xarakterlidir. Tuman hududi bo'ylab Qashqadaryo Qarshi shahridan 17 km g'arbda Maymanov (o'ng) va Qamashi (chap) tarmoqlariga ajralgan. Qamashi tarmog'i Shakarjodaryosi deb ham nomlangan. Kasbi tumanida grunt suvlarni asosan yuqori bosim ostida zamonaviy texnika yordami asosida yer yuzasiga chiqariladi.

Kasbi tuman tabiatining murakkabligi relyefi, iqlim va gidrogeologik sharoitlarning hamda o'simliklarning xilma-xilligi, nihoyatda turli xil tuproqlar vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Tuman hududida bo'z tuproqlar, qumli taqir tuproqlar, allyuvial tuproqlar, cho'l-qumli tuproqlar keng tarqalgan.

Kasbi tumani yer fondini o'rganish shu narsani ko'rsatdiki, bu yerda qishloq xo'jaligini keng ko'lamda rivojlantirishga, yangi yerlarni ochish, sug'oriladigan yerlarni to'la sug'oriladigan yerlarga aylantirish, cho'l yaylovlarining sifatini yaxshilash uchun katta imkoniyatlar bor. Kasbi tumanining hududi tabiatining xususiyatlari va landshaft sharoitlariga ko'ra, Qarshi cho'lining tipik hududlaridan biridir. Tuman hududi uchun relyefning tekisligi, iqlim sharoitlarining quruq va issiqligi, cho'l o'simliklar va tuproqlari xarakterlidir.

Tumanda yaqin paytlarga qadar sug'oriladigan yerlar maydoni uncha katta bo'lmagan. Sug'oriladigan yerlar asosan Qashqadaryo vodiysiga tutash joylarga bo'lgan, ayni paytda sug'orish uchun yaroqli yerlar maydoni anchagina kengaygan. lekin Qarshi cho'lining boshqa joylaridagi kabi sug'orish uchun suv resurslarining taqchilligi, obikor dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlarini cheklab turgan. Suv tanqisligi tufayli mavjud sug'oriladigan yerlar (agroiirrigatsiya landshaftlari)ning meliorativ holati dehqonchilik uchun to'siq bo'la olmagan.

Qarshi cho'lining obikor dehqonchilik uchun yaroqli bo'lgan yerlarini o'zlashtirish maqsadida, Amudaryoning suv resurslaridan foydalanish imkoniyatlari Qarshi bosh kanalining ishga tushirilishi bilan bog'liq bo'ldi. Qarshi bosh kanalining tarmog'i bo'lgan Kasbi tumanining qazilishi va foydalanishga topshirilishi Qarshi cho'lidagi bir qator tumanlar bilan bir qatorda Kasbi tumanining qishloq xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirish va obikor dehqonchilik maydonlarini kengaytirish imkoniyatlarini yaratildi. Hozirgi paytda Kasbi tumanida haydaladigan yerlarning maydoni 49,3 ming gektar bo'lib, bu yerlarning hammasi sug'oriladigan yerlar toifasiga mansubdir.

Kasbi tumani qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun muhim omil bo'lgan juda katta yer fondiga ega. Tumanda haydalib dehqonchilik qiladigan yerlar ko'p. U umumiy yer fondining 59%ni qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar 68%ni tashkil etadi xolos.

Tumanda yer fondining taqsimlanishi (ming ga.)

Ko'rsatkichlar	2006 yil	2017 yil	2018 yil	2025 yil
Mavjud umumiy yer maydoni	73,5	73,5	73,5	73,5
Jami q/x korxona va tashkilotlari egalik qilgan hamda vaqtincha foydalaniladigan yerlar	70,9	51,1	51,1	51,1
shundan:				
haydaladigan yerlar	43,8	44,5	44,5	44,5
shu jumladan:				
Sug'oriladigan yerlar	43,8	44,5	44,5	44,5
Ko'p yillik daraxtzorlar	2,2	1,8	1,8	1,8
shundan:				

- bog`lar	1,1	1,0	1,0	1,0
- uzumzorlar	0,2	0,2	0,2	0,2
- tutzorlar	0,9	0,6	0,6	0,6
- ko`chatzorlar	0,027	-	-	-
yaylovlar	4,5	4,8	4,7	4,8
bundan tashqari:				
aholi tomorqa yerlari	4,9	4,9	4,9	4,9
Ekinlar ekilgan yer maydonlari				
Jami qishloq xo`jaligi ekinlari				
ekib foydalanadigan yerlar	43,8	44,5	44,5	44,5
shundan:				
Sug`oriladigan yerlar	43,8	44,5	44,5	44,5
shu jumladan:				
a) paxta maydoni	25,3	21,6	20,8	20,4
b) g`alla maydoni	15,8	16,7	14,4	14,3
shundan:				
Sug`oriladigan yerlarga don				
ekiladigan maydon	15,8	16,7	14,4	14,3
*Yer resurslari boshkarmasi ma`lumoti buyicha				

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma`lumotlariga ko`ra (2021 y.) [5], Kasbi tumanida haydalib sug`oriladigan yerlar 2006 yilda 43,8 ming ga, 2019 yilda 44,5 ming ga, ko`p yillik daraxtzorlar 2006 yilda 2,2 ming ga, 2019 yilda 1,8 ming ga, shundan bog`lar 2006 yilda 1,1 ming ga, 2019 yilda 1,0 ming ga, uzumzorlar 2006 yilda 0,2 ming ga, 2019 yilda 0,2 ming ga, tutzorlar 2006 yilda 0,9 ming ga, 2019 yilda 0,6 ming ga, yaylovlar 2006 yilda 4,5 ming ga, 2019 yilda 4,8 ming ga, aholi tomorqa yerlari 2006 yilda 4,9 ming ga, 2019 yilda 4,9 ming ga ni tashkil etadi. 2019 yil ma`lumoti bo`yicha Kasbi tumanida jami yer maydoni 73,5 ming gektar hisoblanadi. Shuning 68%i qishloq xo`jaligida foydalaniladigan yerlardir. Shundan foydalaniladigan yerlar 44,5%ni bog` va tokzorlar 1,5%ni, yaylovlar 6,1%ni, aholi tomorqa uchastkalari esa 6,5%ni tashkil etadi.

Kasbi tumani yer fondini o`rganish shu narsani ko`rsatdiki, bu yerda qishloq xo`jaligini keng ko`lamda rivojlantirishga, yangi yerlarni ochish, sug`oriladigan yerlarni kengaytirish, cho`l yaylovlarining sifatini yaxshilash uchun katta

imkoniyatlar bor. Yerning eng ko'p qismi haydaladigan yerlar va yaylovlar bo'lib, umumiy yer fondining 65,1%ni tashkil etadi. Biroq, bu yerlarning katta qismining unumdorligi past bo'lib, taqir tuproqli yerlarda chirindi miqdori kam. Tumanda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi doirasini kengaytirish masalasini yangi yerlar ochish va ularni sug'orish, qator irrigatsiya qurilishlarini amalga oshirishni taqozo qiladi. Haydalib dehqonchilik qilinadigan yerlar doimiy sug'oriladigan yerlarning salkam 52,8% ga paxta yetishtiriladi, qolgan qismi bog', tokzorlar, sabzavot, poliz ekinlari va hashaki ekinlar yetishtiriladi hamda mevali daraxtlar tokzorlar egallaydi.

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida sug'oriladigan yerlarning samarasi juda yuqori bo'lib, mamlakat paxta va g'alla yalpi hosilida yetakchi o'rinni egallaydi. Tarixiy geografik nuqtai nazardan respublikada qishloq xo'jaligi intensiv rivojlanish davrida yangi yerlarni o'zlashtirish jarayoni agrar soha ishlab chiqarishi va uning tashkiliy tarkibida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, fermer va dehqon xo'jaliklari shakllandi va ularning rivojlanishiga ustuvor ahamiyat berildi. Xususan, fermer xo'jaliklari ko'proq yangi yerlar o'zlashtirilgan hududlarda ko'proq tashkil etildi va ular asosan strategik mahsulotlar – paxta va g'alla, chorvachilikda go'sht va jun yetishtirishga ixtisoslashtirildi [4;54-56 b.]. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida klasterlar rivojlanishi sanoat va qishloq xo'jalikni bir-biriga yaqinlashtirdi. Kasbi tumanida g'allachilik bo'yicha "Indorama" MCHJ (maydoni 5065 ga), "Asqar Trans Gold Klaster" (maydoni 9135 ga) kabi klasterlar tashkil etilgan Kasbi tumanida paxta – to'qimachilik bo'yicha "Indorama" MCHJ (maydoni 18350 ga) klaster tashkil etilgan. Ushbu klasterlarning tashkil etilishi ayniqsa pandemiya davrida aholini qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda mo'l hosil yetishtirish davr talabi bo'lgan bir davrda nafaqat viloyat balki mamlakatimiz iqsodini rivojida ham muhim o'rin tutadi.

Sug'oriladigan yerlar tuman xo'jalik faoliyatida katta ahamiyatiga ega bo'lib, bunday yerlardan har qanday ob-havo sharoitida ham paxta va boshqa qimmatli ekinlardan rejalashtirilgan hosilni olish mumkin. O'z navbatida sug'oriladigan yer

resurslaridan oqilona foydalanish dehqonchilik sistemasiga bog'liq, almashlab ekish, yerga ishlov berish, uni meyorlarida o'g'itlar bilan ta'minlash, sug'orish, urug'chilik, o'simlikni kasallik va zarar-kunandalardan saqlash singari ishlar dehqonchilik ishlarida olib borilmoqda. Ayni paytda dehqonchilik sistemasi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning ixtisoslashishiga bog'liq bo'lib, turli ekinlar uchun hatto turli qishloq xo'jalik rayonlarda o'ziga xos xususiyatga egadir.

Tumanda haydalib dehqonchilik qilinadigan yerlarda g'allachilik, bog'dorchili, uzumchilik va qisman polizchilik rivojlangan. Kasbi tumani hududining katta qismi obikor dehqonchilik uchun o'zlashtirilishi mazkur hududda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini, avvalo ekin maydonlarining tuzilishi (strukturasi)ni tubdan qaytadan ko'rib chiqish va yaxshilash, ilmiy asoslangan almashlab ekishni paxtachilikda va boshqa ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarda joriy qilish bilan birga chorvachilikni rivojlantirish uchun mustahkam yem-hashak bazasini yaratishni, landshaftlarning inson xo'jalik faoliyatining xilma-xil turlari ta'siri ostida o'zgarishining xususiyatlarini chuqur o'rganishni, landshaftlar antropogen dinamikasini bashoratlashtirishni zero, bugungi kunda inson faoliyati bilan bog'liq bir qator geoekologik muammolar mavjud bo'lib, ularning to'g'ri va oqilona yechimi antropogen landshaftlarning mavjudlik va rivojlanishini o'rganish bilan chambarchas bog'liq. Bulardan ayrimlari sug'oriladigan yerlarda zax bosishi, qayta sho'rlanish, sug'orish eroziyasi, tuproqlarning umumiy qashshoqlanishi, yer usti va yer osti suvlarida mineral tuzlarning ko'payishi, suvda nitratlar miqdorining ortishi kabi landshaftlarning biologik mahsuldorligiga katta zarar yetkazadigan noxush jarayonlarning tobora o'zgarganligi va ularni oldini olish qulay sharoit yaratish muhim muammolardan biri hisoblanadi. Yerlarning qayta sho'rlanishi, suv va shamol eroziyasi tufayli shikastlanishi bu omillar bilan birgalikda sug'oriladigan yerlarning degradatsiyasiga va atrof-muhitning ifloslanishiga, ya'ni geoekologik vaziyatning salbiy tamonga o'zgarishiga olib kelgan holda sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladigan qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligining kamayishiga, yetishtirish harajatlarning oshishiga sabab bo'lmoqda [1; 30-35 b., 2; 3-106 b.].

Qashqadaryo viloyati sug'orma dehqonchilik qiinadigan hududlaridan olingan suv namunalarida sulfatlar Qarshi vohasida REM dan 2 barobar yuqori 898 мг/л (meyor 450-500 mg/l). Kasbi tumanining Toshquduq va Fazli qishloqlarida meyardan biroz past. Agarda suvda natriy kam bo'lsa, xlorning miqdori katta bo'ladi. Bu Kasbi tumanidagi Komilon va Toshquduq qishloqlaridagi quduqlarda meyardan ancha yuqori, xlorning miqdori REM dan 5-7 barobar ko'pligi aniqlandi. Kasbi tumani hududidan olingan namunalardagi suvning qattiqligi 2,97 mg/l dan 28,72 mg/l gacha o'zgaradi, eng yuqori ko'rsatkich Kasbi tumanining Kamilon qishlog'iga (28,72 mg/l), eng past ko'rsatkich Pandiron qishlog'iga (2,97 mg/l) to'g'ri keladi [3; 98-100 b.].

Kasbi tumanida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi agrosanoat majmuida yangidan tarkib topayotgan hududiy tizimlarni qayta ko'rib chiqish va ilmiy tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Shunday ekan, qishloq xo'jaligida ixtisoslashgan Kasbi tuman uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan kichik korxonalar bunyod etib, yangi ish o'rinlarini yaratish zarur.

Kasbi tumanning mehnat resurslari bilan yetarli ta'minlanganligini hamda ekologik sharoiti va agroiklimiy resurslarining umumiy sharoiti qulayligini hisobga olgan holda tumanni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishda quyidagilarni tavsiya etish mumkin: - dehqonchilikda ilg'or agrotexnika qoidalaridan foydalanilgan holda mehnat unumdorligini oshirish; - dehqonchilikning yangi tizimini joriy qilish yerni almashlab ekishni to'la joriy etish, chorva mollari uchun mustaqil yem-xashak bazasini yaratish; - tuman qishloq xo'jaligida aholi talabidan kelib chiqib mahsulotlar turini ko'paytirish; - tumanda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoatiga ixtisoslashtirish; - tumanda agroturizm sohasini rivojlantirish; - tumanning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Абдуллаев С.И., Жанкобилов И.Х., Мукумова Х.И. Суғорма деҳқончилиқ геоэкологияси // География ва геоэкология. – Самарқанд, 2017. –Б. 30-35.

2. Жанкобилов И., Назаров М., Абдуллаев С. Қашқадарё вилоятининг геоэкологик карталарини тузиш (монография). –Қарши, 2016. -106 б.
3. Назаров М.Г., Абдуллаев С.И. Қашқадарё вилояти қишлоқ хўжалик табиатидан фойдаланиш // Фарғона водийсида табиатдан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг долзарб муаммолари. - Наманган, 2014.-Б. 72-74.
4. Алибеков Л.А. Арид минтақаларда чўлланиш муаммолари / Ўқув-услубий мажмуа. Самарканд, 2013. 168 б.
5. Жумабоев Р., Матчанов М Qurg‘oqchil yillarda dehqonchilikni rejalashtirish kartalarini loyihalash va tuzish (Xorazm viloyati misolida). // “Geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami T.: 2021y. 150-153 b.
6. Рафиқов В.А. Опустынивание – Ташкент: Sivash. 2016.– 204 с.
7. Hasanov P. A. Qashqadaryo viloyatida balandlik mintaqalanishi va geoekologik vaziyatni baholash // “Geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami T.: 2021y. 129-134 b.
8. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma`lumotlari 2024.
9. Xushmurodov F. M. Abdullayev S. I. Agrolandshaftlarda kechadigan tabiiy-antropogen jarayonlar va ularni kartalarda ifodalash. // “Geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami T.: 2021y. 98-101 b.
10. Xushmurodov F.M. Qashqadaryo havzasi vohalari agrolandshaftlarining cho'llanish jarayonini tadqiq qilish va xaritalashtirish / Dissertatsiya. Samarqand-2023 y. 78-110 b.
11. F.Khushmuradov, Features of the desertification process in the Kashkadarya valley and its control, Master's dissertation, Samarkand, 82 (2017)
12. F. M. Khushmurodov, Optimization of sustainable use of agrolandscapes, Economy and society, **10-1, 101**, 72-76 (2022)
13. Abdusali Suyunov, Farrukh Khushmurodov, Shukhrat Suyunov, Ecological and geographical aspects of land using in forming agrolandscapes, E3S Web of Conferences 463, 02006 (2023).
14. A.S. Suyunov, Sh.A. Suyunov, F.M. Khushmurodov, Various considerations about concepts and trends in the study of landscapes. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 2720-5746 (2023)